



NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMI QARORI

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-13-42, nurota@nv.uz

2023 - yil 19 - yanvar

8-5-74-Q/23

Nurota tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-noyabrdagi “Aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-426-son, Navoiy viloyati hokimining 2022-yil 16-dekabrda 251-5-0-Q/22-sonli qarorlarining ijrosini ta‘minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-apreldagi “Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6218-sonli Farmoni, 2022-yil 18-noyabrdagi “Aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-426-son hamda Navoiy viloyati hokimining 2022-yil 16-dekabrda 251-5-0-Q/22-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash, shuningdek, tuman aholisini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish ishlari samaradorligini oshirish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunning 6, 25, 27-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-noyabrdagi “Aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-426-son hamda Navoiy viloyati hokimining 2022-yil 16-dekabrda 251-5-0-Q/22-sonli qarorlari ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Navoiy viloyat hokimining 2022-yil 16-dekabrda 251-5-0-Q/22-sonli qarorning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish ishlarini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi inobatga olinsin.

3. Toshqin suvlari va sel oqimlarini xavf-xatarsiz o‘tkazib yuborishni ta‘minlash, qor ko‘chishi va yer ko‘chkisi hodisalari xavfini kamaytirish bo‘yicha tuman komissiyasining (keyingi o‘rinlarda – Toshqinga qarshi tuman komissiyasi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Toshqinga qarshi tuman komissiyasi (Sh.Rustamov) Navoiy viloyati hokimining 2022-yil 16-dekabrda 251-5-0-Q/22-sonli qaror bilan tasdiqlangan “Aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish ishlarini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablari bajarilishi ustidan tizimli nazorat o‘rnatib borsin.

5. Belgilab qo‘yilsinki, toshqinga qarshi tuman komissiyasining ishini tashkiliy-texnik jihatdan

ta'minlash tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limiga yuklatiladi.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Fayziyev

Nurota tuman hokimining
2023 yil 19 yanvardagi
8-5-74-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Toshqin suvlari va sel oqimlarini xavf-xatarsiz o'tkazib yuborishni ta'minlash, qor ko'chishi va yer ko'chkisi xodisalari xavfini kamaytirish bo'yicha tuman komissiyasining

TARKIBI

1	A.Fayziyev	Nurota tuman hokimi, Komissiya raisi
2	Sh.Rustamov	Nurota tuman hokimi o'rinbosari, Komissiya raisining o'rinbosari
3	H.Mavlyanov	Favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i, Komissiya raisining o'rinbosari
Komissiya a'zolari:		
4	B.Xidirov	Tibbiyot birlashmasi boshlig'i
5	Sh.O'roqov	Sanitariya-epedimiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi boshlig'i
6	F.Fayziyev	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmasi
7	U.Farmonov	Elektr ta'minoti bo'limi boshlig'i
8	Sh.Ismatillayev	"Nurotatumangaz" gaz ta'minoti bo'limi boshlig'i
9	Sh.Isroilov	Mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i
10	S.Sanoyev	Nurota tumani Qo'riqlash bo'limi
11	U.Abdurahmonov	Ichki ishlar bo'limi boshlig'i
12	S.Haydarov	Moliya bo'limi boshlig'i
13	J.Fayziyev	Navoiy ko'priklardan foydalanish UK rahbari
14	L.Norbekov	Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limi boshlig'i
15	R.Norboboyev	Tuman yo'llardan foydalashi UK raxbari
16	S.Rajabov	Favqulodda vaziyatlar bo'limi bo'linma boshlig'i, Komissiya kotibi

***Izoh.** Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*